




**SURXONDARYO VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI**



The top half of the cover features a background image of a business meeting. A person in a suit is visible, with a large, semi-transparent blue and green bar chart and a white line graph overlaid on the scene. A large, 3D-style arrow in shades of blue, green, and red points upwards and to the right, crossing the boundary between the top and middle sections.

**SURXONDARYO
VILOYATINING SANOAT
ISHLAB CHIQRISHI**

2022- YIL YANVAR-OKTABR (DASTLABKI MA'LUMOT)




The bottom half of the cover features a background image of an industrial factory. The scene is filled with complex machinery, pipes, and several tall smokestacks emitting thick plumes of dark smoke into the sky. The overall color palette is dominated by greys, blues, and the red-and-white stripes of the smokestacks.

Surxondaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi


(2022- yil yanvar-oktabr oyida)

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2022- yilning yanvar-oktabr oyida Viloyat korxonalari tomonidan 5938,5 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2021- yilning yanvar-oktabr oyiga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 105,2 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 88,0 % ni tashkil etdi.




Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* % da



*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.


Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning – 42,5 % ga hamda suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizasiya qilish – 12,5 % ga o'sishi kuzatildi.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2022- yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 175,3 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 3,0 % ini tashkil etdi.


Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, foizda




Yanvar-oktabr

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da




Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-oktabr	2022- yil yanvar-oktabr	Farqi +/-
Ko'mir, ming t.	232,1	225,9	-6,2
Neft, ming t.	70,8	71,1	0,3



Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-oktabr	2022- yil yanvar-oktabr	Farqi +/-
Qattiq tuz, ming t.	20,4	18,1	-2,3
Chaqiq tosh, ming t.	68,6	52,7	-15,9

Ishlab chiqaradigan sanoat



2022- yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 5225,2 mlrd. so‘mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 88,0 % ini tashkil etdi.


2021- yil yanvar-oktabr

89,6 %

2022- yil yanvar-oktabr


88,0 %


O‘tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,4 % ni (2021- yilning yanvar-oktabr oylarida – 0,3 %), o‘rta-yuqori texnologiyali – 0,5 % (0,4 %), o‘rta-quyi texnologiyali – 22,3 % (22,5 %) va quyi texnologiyalisi – 64,8 % (66,3 %)ni tashkil etdi.



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob-uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 5,0 % (2021- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 108,1 %), metallurgiya sanoatining ulushi – 0,8 % (2021- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 50,0 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 40,2 % (2021- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 99,1 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 20,8 % (2021- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 101,3 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 1,0 % (2021- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 117,9 %)ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati
O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da






2022- yilning yanvar-oktabr oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 12,9 ming tonna paxta tolasi (2021- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan 83,7 % ga kamaygan), 14,1 ming tonna boshqa guruhlariga kiritilmagan suyuq neft yoqilg'isi (mazut) (64,9 % ga kamaygan), 1,9 ming tonna lint (29,4 % ga kamaygan), 52,1 ming tonna neft bitumi (99,5 % ga kamaygan) hamda ishlab chiqarilib, kam o'sish sur'atlari kuzatildi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish


Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-oktabr	2022- yil yanvar-oktabr	Farqi +/-
Paxta tolasi, ming t.	15,4	12,9	-2,5
Paxta tiviti (lint), ming t.	6,6	1,9	-4,7
Neft bitumi, ming t.	52,4	52,1	-0,3
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t.	97,2	89,2	-8,0
Saryog', t.	1,8	1,0	-0,8
O'simlik yog'i (tozalangan), ming t.	2,9	2,5	-0,4

Metallurgiya sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-oktabr oylarida metallurgiya sanoati ulushi 1,8 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 0,2 m. ga o'sgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 0,8 % ni, fizik hajm indeksi esa, 50,0 % ni tashkil etib va ishlab chiqarish hajmi 49,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-oktabr oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 6,7 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 111,8 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-oktabr oylari yakuniga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 8,4 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 141,4 % ga ko'ktabrgan va ishlab chiqarish hajmi 500,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.


Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-oktabr oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 21,0 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 105,6 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-oktabr oylari yakuniga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 20,3 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 2,5 % ga ko'paygan va ishlab chiqarish hajmi 1205,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-oktabr oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,6 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 81,5 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-oktabr oylari yakuniga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,5 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 74,9 % ni va ishlab chiqarish hajmi 29,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.



To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati




Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-oktabr oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 36,2 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 117,3 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-oktabr oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 36,5 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 104,5 % ga o'sgan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 2167,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.


Kiyim ishlab chiqarish sanoati

2021- yilning yanvar-oktabr oylari yakuniga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 5,2 % ni, fizik hajm indeksi esa 125,3 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,7 %, fizik hajm indeksi 69,8 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 217,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

2021- yilning yanvar-oktabr oylari yakuniga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,3 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 172,3 % ni tashkil etgan. Shuningdek, 2022- yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,4 % ni, fizik hajm indeksi 110,0 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 23,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish



2021- yilning yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko'ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 7,5 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 99,0 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 7,5 % ni, fizik hajm indeksi 96,1 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 447,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

2021- yilning yanvar-oktabr oylari yakuniga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,5 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 200,8 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,6 % ni, fizik hajm indeksi 134,4 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 35,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 440,1 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 7,4 % ini) tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-oktabr oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 142,5 % ga oshganligi kuzatildi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-oktabr	2022- yil yanvar-oktabr	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	158,0	220,0	62,0
Issiqlik energiyasi, ming gkal	29,2	29,1	-0,1

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 97,9 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,6 % ini) tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-oktabr	2022- yil yanvar-oktabr	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd. so'm	4,2	3,9	-0,3
Boshqa axlatxonalarda xavfsiz chiqindilarni yo'qotish bo'yicha xizmatlar, mlrd. so'm	19,8	24,7	4,9

O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar 49,5 mlrd. so'm, oqova suvlarini yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 3,9 mlrd. so'm shuningdek, 24,7 mlrd. so'm boshqa axlatxonalarda xavfsiz chiqindilarni yo'qotish bo'yicha xizmatlar ishlab chiqarildi.

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2124,7 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2021- yilning mos davriga nisbatan 109,6 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 35,8 % ni tashkil etdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari

2021- yil
yanvar-oktabr

47,5 %

2022- yil
yanvar-oktabr

46,9 %

Nooziq-ovqat mahsulotlar

2021- yil
yanvar-oktabr

52,5 %

2022- yil
yanvar-oktabr



53,1 %

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 0,7 % (2021- yil yanvar-oktabr oylarida 2,1 %)ni tashkil etdi. Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining Viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jarqo'rg'on tumani 15,0 % ni, 14,9 % Sho'rchi tumaniga to'g'ri kelib Termiz sh. 16,5 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida Viloyat o'sish sur'ati (109,6 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Termiz (138,1 %), Jarqo'rg'on (133,6 %) va Sho'rchi (126,2 %) tumanlarida qayd etildi.

Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining Viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Termiz shaxrida 16,5 % ni, Jarqo'rg'on tumani 15,0 % ni, Sho'rchi tumaniga to'g'ri kelib 14,9 % ni tashkil etdi.



Surxondaryo viloyati hududlari kesimida sanoat ishlab chiqarishi hajmlari

Hududlar kesimida sanoat ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jarqo'rg'on tumaniga to'g'ri kelib 16,5 % ni, shuningdek, Denov tumani 11,1 % ni, Sho'rchi tumani 10,2 % ni, Termiz shahri esa 18,1 % ni tashkil etdi.

Surxondaryo viloyati

2020- yil

3810,2 mlrd. so'm

2020- yil yanvar-oktabr

2021- yil

5181,1 mlrd. so'm

2021- yil yanvar-oktabr

2022- yil

5938,5 mlrd. so'm

2022- yil yanvar-oktabr



2020- yil

108,6 %

2020- yil yanvar-oktabr

2021- yil


110,3 %

2021- yil yanvar-oktabr

2022- yil


105,2 %

2022- yil yanvar-oktabr



Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Termiz shahri (5592,6 so'm), Jarqo'rg'on (4272,6 ming so'm), Termiz (3864,6 ming so'm) hamda Sho'rchi (2768,8 so'm) tumanlarida o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (2146,8 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.






Surxondaryo viloyati



Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish


Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 768,1 ming so'm bo'lgani holda, Termiz shahrida – 1829,1 ming so'mni, Termiz tumanida – 1687,7 ming so'mni, Sho'rchi tumanida – 1444,9 ming so'mni va Jarqo'rg'on tumanida – 1393,8 ming so'mni tashkil etdi.

Surxondaryo viloyati



Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 2442,4 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 41,1 % ni tashkil etdi.



Surxondaryo viloyati

2020- yil

1566,0 mlrd. soʻm

2020- yil yanvar-oktabr

2021- yil

2498,5 mlrd. soʻm

2021- yil yanvar-oktabr

2022- yil

2442,4 mlrd. soʻm

2022- yil yanvar-oktabr



41,1 %

2020- yil

2020- yil yanvar-oktabr

48,2 %

2021- yil

2021- yil yanvar-oktabr


41,1 %

2022- yil

2022- yil yanvar-oktabr

Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda viloyatda 4 779 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 830 tasi (ro'yxatdan o'tgan korxonalar umumiy sonining 17,4 % i) Termiz shahriga, 540 tasi (11,3 %) Denov tumaniga, 385 tasi (8,1 %) Sho'rchi tumaniga, 318 tasi (6,7 %) Jarqo'rg'on tumaniga va 316 tasi (6,6 %) Qumqo'rg'on tumaniga to'g'ri kelmoqda.



Jami yangi tashkil etilgan



Jami faoliyat yuritayotgan

